

**ELEKTRON TO'LOV VOSITALARIDAN FOYDALANIB FIRIBGARLIK
SODIR ETGANLIK UCHUN JINOIY JAVOBGARLIK**

*Normanov Oxunjon Eshnazar o'g'li
Toshkent shahar IIBB YHXB katta inspektori*

Hozirgi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari zamonida hayotimizni internetsiz tasavvur qila olmaymiz. Ayniqsa, ikki yildan beri davom etib kelayotgan pandemiya tufayli internetga ehtiyoj yanada ortdi. Bu paytda internet firibgarligi ko'payganini ham inkor etib bo'lmaydi. Bugun "o'rgimchak to'ri"ning insonlar hayotiga ko'proq kirib borishi natijasida, ayniqsa, onlayn buyurtmalar ko'rinishidagi kiberfiribgarlik soni har qachongidan-da ko'paymoqda. Firibgarlikning bu turi har xil usul va shakllarda sodir etilishi mumkin. Ular orasida eng keng tarqalgani fishing, karding va farmingdir. Fishing "baliq ovi" ma'nosini bildiradi va banklar, to'lov tizimlari nomidan elektron xatlar yuboradi. Foydalanuvchini bank va to'lov tizimlari bilan bir xil ko'rinishda bo'lgan maxsus saytga kirishga undaydi va foydalanuvchi unda shaxsiy ma'lumotlarini qoldirish orqali kiberfiribgar tuzog'iga tushishi mumkin. Keyingisi karding bo'lib, u fishing saytlar yaratish va unda arzon narxdagi tovrlarni joylashtirish hamda undan xaridorlar o'zining shaxsiy ma'lumotlarini (plastik kartasi haqidagi ma'lumotlarni) kiritish orqali kiberfiribgarga plastik karta haqida ma'lumot beruvchi, ammo biror oldi-sotdini amalga oshirish imkonini bermaydigan kiberfiribgarlik turidir. Farming ham firibgarlikning fishing saytlar orqali sodir etiladigan ko'rinishi bo'lib, unda foydalanuvchi sayt nomini to'g'ri qayd etsa ham soxta saytga kiraveradi va shu orqali shaxsiy ma'lumotini o'zi bilmagan holda kiberfiribgarning qo'liga topshiradi. Bundan tashqari, ushbu jinoyat boshqa usullar bilan ham sodir etilishi mumkin. Hozir ko'plar qo'lidagi valyutani internet tarmog'i orqali tegishli bank saytlariga kirish yo'li bilan onlayn tarzda almashtirishga harakat qiladi. Kurslar orasidagi tafovut birmuncha arzonroq bo'lgan platformada pul almashtirishga urinib ko'rishi va shu yo'l bilan bor mablag'idan ajralishi ko'p uchramoqda. Yoki soxta reklamaga uchib, aldamchi frilanserga chuv tushishi mumkin. Statistikaga ko'ra, onlayn buyurtma orqali firibgarlik qilishning eng ko'p tarqalgan usuli xarid uchun haq to'lanib, xarid qilingan buyumning xaridorga etkazib berilmasligi natijasida mulkdorga etkazilgan zarar hisoblanadi. Ushbu jinoyat barcha davlatlarda, xususan, mamlakatimizda ham ko'p uchramoqda. Statistik ma'lumotlarga qaraganda, firibgarlik jinoyati O'zbekistonda transport vositalari harakati va ulardan foydalanish xavfsizligiga qarshi jinoyatlardan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Jumladan, Respublika protsessing markazining ma'lumot berishicha, Uzcard brendidan kiberfiribgarlik maqsadida rasmiy sayt interfeysi ko'chirib olinib, bonuslar olish uchun karta raqamini kiritish taklif qilingan. Natijada shu orqali kiberfiribgarlik amalga oshirilgan. Shuningdek, "Kiberxavfsizlik markazi" DUK ma'lumotiga ko'ra, 2021 -

yilda internet tarmog'ining milliy segmenti manzil maydonida 17 million 97 ming 478 ta zararli va shubhali holat, jumladan, 1 354 106 ta kiberhujum aniqlangan.Bunday jinoyatni sodir etgan shaxslarga nisbatan javobgarlik yoshini belgilash haqida dunyo davlatlari turlicha yosh tsenzini taklif qiladi. Agar jinoyat O'zbekiston hududida sodir etilgan bo'lsa, ushbu shaxsga nisbatan yosh tsenzi 16 yosh deb belgilangan. Mazkur shaxs Jinoyat kodeksining 17-moddasi va 168-moddasining ikkinchi qismi "v" bandiga asosan, komp`yuter texnikasi vositalaridan foydalanib firibgarlik jinoyatini sodir etgani uchun jinoiy javobgarlikka tortiladi.Shu o'rinda savol tug'iladi: bunday jinoyat ko'payishiga nima sabab bo'lmoqda va uning oldini olish mumkinmi?

Ha, albatta, mumkin. Onlayn buyurtmaga asoslangan firibgarlik jinoyati sodir etilishiga aksariyat hollarda shaxsning o'zi sababchi bo'ladi. Misol uchun, doimiy foydalanadigan onlayn do'konning domeni nomiga jabrlanuvchi etarlicha e'tibor qaratmaydi va domen nomidagi o'xshash harf yoki belgi, raqamlar orqali soxta fishing saytga kirib ketadi. Sinalmagan saytlar orqali onlayn buyurtma qilish va plastik karta haqidagi ma'lumotni o'zi bilmagan holda firibgarga berib yuborish ham uning tuzog'iga ilinishga sabab bo'ladi.

Senatda elektron firibgarlik va o'g'rilik uchun 5 yildan 8 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosini belgilashga oid qonun ma'qullandi. Ular qayd etishicha, bu kabi jinoyatlar ortib bormoqda. Masalan, firibgarlik bilan bank kartalaridan pulni talon-toroj qilish bo'yicha 7 oyda 1812 ta jinoyat ishi qo'zg'atilgan.Senatning 32 yalpi majlisida «O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjalariiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi qonun ko'rib chiqildi, deya xabar bermoqda yuqori palata matbuot xizmati.Mazkur qonun bilan Jinoyat kodeksi, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks hamda «Tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida»gi qonunga tegishli o'zgartishlar kiritilmoqda.«Sir emaski, oxirgi paytlarda elektron to'lov vositalari yoki masofaviy xizmat ko'rsatish tizimlaridan foydalanib, o'zgalar mulkini talon-toroj qilish, firibgarlik, o'g'rilik jinoyatlari ko'p sodir etilmoqda. Birgina misol, 2022 yilning 7 oyi davomida bank plastik kartalaridan pul mablag'larini firibgarlik va o'g'rilik yo'li bilan talon-toroj qilingani holati yuzasidan jami 1 812 ta jinoyat ishi qo'zg'atilgan», — deyiladi xabarda.Senatga ko'ra, bugungi kunda ushbu huquqbazarlik Jinoyat kodeksining firibgarlik, o'g'rilik deb nomalangan 168, 169-moddalari bilan tasniflanmoqda. Biroq ayni paytda ushbu moddalarda belgilangan jazo aybdorlarning chin dildan pushaymon bo'lib, bu yo'ldan qaytishi, ahloqan tuzalish yo'liga kirishi uchun yetarli emasligi, sodda qilib aytalganda jazo yengillik qilayotgani ma'lum bo'lmoqda.Qolaversa, amaldagi qonunchilikda muqaddas qadamjolarga, tarixiy voqealarga bag'ishlangan, atoqli davlat va jamoat arboblari, milliy qahramonlarning xotirasini abadiylashtirish maqsadida o'rnatilgan yodgorliklarga hurmatsizlik bilan munosabatda bo'lish kabi xatti-harakatlarga nisbatan javobgarlikni belgilashda bo'shliqlar borligi qayd etildi. Shu bois, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga Moddiy madaniy meros obyektlariga nisbatan

hurmatsizlik qilish, tahqirlash yoki ularga shikast yetkazish uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi yangi norma kiritilmoqda. Shuningdek, shikast yetkazish uchun belgilanayotgan miqdorlar ya’ni, oz miqdor va ko‘p bo‘lмаган miqdor tushunchalari kiritilib, unga ko‘ra, oz miqdorda deganda bazaviy hisoblash miqdorining 30 baravarigacha, ko‘p bo‘lмаган miqdorda deganda bazaviy hisoblash miqdorining 100 baravarigacha bo‘lgan doiradagi miqdor tushunilishi ko‘rsatilmoqda. Mazkur qonunni ishlab chiqish jarayonida xalqaro tajriba, Hamdo‘stlik mamlakatlari qonunchiligi o‘rganilgan hamda milliy qonunchilikka mos keladigan normalar qisman inobatga olingan.

Xulosa:

Ushbu qonunning qabul qilinishi:

-birinchidan, jismoniy va yuridik shaxslarning elektron pul mablag‘larini talon-toroj qilish hamda fuqarolarning ishonchiga kirib hisob raqamlari yoki plastik kartalaridan pul mablag‘ini talon-toroj qilish kabi o‘g‘irlik va firibgarlik jinoyatlarining oldi olinishiga;

-ikkinchidan, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, muqaddas qadamjolarning munosib saqlanishiga, muhim tarixiy voqealarga bag‘ishlangan, atoqli davlat va jamoat arboblari, milliy qahramonlarning xotirasini abadiylashtirish maqsadida o‘rnatilgan yodgorliklarga hurmatsizlik yoki ularni tahqirlashga yo‘l qo‘ymaslikka xizmat qiladi.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. <https://huquqburch.uz/uz/tolov-kartalaridan-foydalangan-holda-sodir-etilgan-firibgarlik/>
2. William Joley. Common credit card frauds and how to avoid them. July 10, 2019. <https://www.savings.com.au/credit-cards/credit-card-fraud>
3. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
4. B.E. Shavaleev, Peculiarities of fraud with using electronic payment facilities in the structure of modern Russian criminality, Scientific notes of Kazan Law institute MIA of Russia 5(9) (2020) 36-38.
5. www.norma.uz